

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEKNIYAZOVA SEVARA NURXANOVNA

**TALABALARNING AMALIY KOMPETENSIYASINI VEBINAR
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Bekniyazova Sevara Nurxanovna

Talabalarning amaliy kompetensiyasini vebinar texnologiyalar asosida
takomillashtirish 3

Бекниязова Севара Нурхановна

Совершенствование практических компетенций студентов на основе вебинар
технологий 25

Bekniyazova Sevara Nurkhanovna

Developing practical competence of students via webinar technologies..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEKNIYAZOVA SEVARA NURXANOVNA

**TALABALARNING AMALIY KOMPETENSIYASINI VEBINAR
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2020.1.Phd/Ped1337 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchi.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Hoshimova Dildora O'rinboyevna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Muradkasimova Kamola Shuxratovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.FiL/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat _____dagi majlsida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b., filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G'Q. Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Axborot texnologiyalari va globallashtirish davri nomini olgan XXI asrda jahonda ma'lumot almashinuvi yuqori tezlikda kechmoqda. Axborot texnologiyalari nafaqat insoniyatning ilmiy taraqqiyotiga, balki ijtimoiy o'zgarishlarga ham olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholining ijtimoiy faolligini oshirmoqda. Bunday sharoitda axborot texnologiyalarining ta'limga bo'lgan ta'sirini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Ayniqsa, internet tarmog'i bugungi maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalarining diqqatini o'ziga jalb qilib olganligi, ayni haqiqat. Bundan bir necha yil oldin ko'pchilik internetdan dars jarayonida foydalanishga shubha bilan qaragan, undan foydalanishni bilmagan bo'lsa, endilikda ta'lim jarayonini axborot kommunikatsiya texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Misol uchun, AQSH (The United States Distance Learning Association – USDLA), Buyuk Britaniya (Open University – UKOU), Fransiya (Centre National d'Education a Distance – CNED), Yevropa davlatlari (European Association of Distance Teaching Universities –EADTU), Rossiya (Центр дистанционного образования «Эйдос»), Xitoy (Hanban tashkiloti), Hindiston, Yaponiya, Koreya kabi yetakchi davlatlar ta'lim tizimida masofaviy ta'lim orqali o'qitish yaxshi yo'lga qo'yilganligini kuzatishimiz mumkin.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lganidek, respublikamizda bugun kompyuter texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilgan. Dars jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo'llash o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlab, yoshlarning mavzuga bo'lgan diqqati va qiziqishini ortishiga sabab bo'lmoqda. Ta'lim-tarbiya paradigmasi o'zgarimoqda. Respublikamizda ilk bor 2023-2024-o'quv yilidan boshlab ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Ta'limning masofadan o'qitish shakli bo'yicha dars mashg'ulotlari professor-o'qituvchining tinglovchilar bilan internet jahon axborot tarmog'i orqali interaktiv dasturiy tizimlardan foydalangan holda sinxron (real vaqt rejimida) va asinxron (bir hil bo'lmagan vaqtda) muloqot tarzida amalga oshirilishi mumkin. Real vaqt rejimida o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda vebinar texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Vebinar darslarida talabalarning amaliy/kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ingliz tilini joy va vaqt bilan chegaralanmagan holda o'rganish usullarining nechog'li katta ahamiyatga egaligi tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

“Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, - degan edi qat'iyat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev¹. Darhaqiqat, chet tillarni bilish bugun

¹ Президент: Бундан буён битирувчилар камидан икки чет тилини мукаммал билиши шарт. Электрон ресурс: <https://m.kun.uz/uz/news/2021/05/06/prezident-bundan-buyon-bitiruvchilar-kamida-ikki-chet-tilini-mukammal-bilishi-shart>, Мурожаат санаси: 06.05.2021.

zamon talabiga aylandi. Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi masofaviy tizimni yo'lga qo'yish vaqti keldi. Shu maqsadda ingliz tilini o'qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish, uning offlayn/onlayn shakllarini keng targ'ib qilish va shunga sharoit yaratish zaruriyati tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son, 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2019-yil 3-maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son, 2021-yil 19-maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-avgustdagi «Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 625-son, 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son, 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son, 2022-yil 3-oktyabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-son qarorlari, shuningdek boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'limning masofaviy shakllari, elektron ta'lim, dars jarayonini masofaviy tashkil etish metodikasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Yevropa mamlakatlarining D.Garrison, T.Anderson, Y.Göktaş, M.Moore & Kearsley, N. Bijeesh kabi olimlari tomonidan masofaviy ta'lim, elektron ta'lim va ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida ilmiy-izlanishlar olib borilgan².

MDH mamlakatlari olimlaridan A.Bershadskiy, A.Andreyev, L.Aslezova, V.Monaxov, I.Ibragimov, V.Kuklev, V.Nikulicheva, D.Romanenkova, E.G.Azimov, M.Vayndorf-Sisoyevlar tomonidan masofali ta'lim, uning o'ziga xos xususiyatlari borasida keng monografik tadqiqot ishlari olib borilgan³.

Masofali o'qitishni tashkil etish masalalari va uning metodikasi bo'yicha U.Begimqulov, A.Abduqodirov, A.X Pardayev, A.Asqarov, M.X.Lutfillayev, A.Ibraymov singari o'zbek olimlari ilmiy-izlanishlar olib borgan⁴. Bundan tashqari, X.A. Mamatqulovning "Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot metodik ta'minotini takomillashtirish"⁵, I.M.Tuxtasinovning "Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish"⁶ va M.R.Muhitdinovanning "Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarini ingliz tiliga masofaviy o'qitishning usul va vositalari" mavzularidagi ilmiy izlanishlarini misol keltirish mumkin⁷.

² Garrison D. & Shale D. Mapping the boundaries of distance education: Problems in defining the field. // American Journal of Distance Education. 1987, №1.P.4–13; Anderson T. Towards a Theory of Online Learning. –Canada: Athabasca University, 2008.–P.43; Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning (2nd Edition).–Canada: Athabasca University, 2011.–441 p.; Göktaş Y. The current status of information and communication technologies integration into schools of teacher education and K–12 in Turkey.– Middle East Technical University.–Ankara, Turkey, 2006.–P.32–40; Moore M. G. & Kearsley G. Distance education: A systems view of online learning (What's new in education).– Belmont, CA: Thomson Wadsworth, 2012.–361 p.; Bijeesh N. A. Advantages and disadvantages of distance learning. Retrieved from 2017. <http://www.indiaeducation.net/online-education/articles/advantages-and-disadvantages-of-distancelearning>.

³ Бершадский А.М., Кревский И.Г. Дистанционное образование на базе новых информационных технологий: учеб. пособие.–Пенза:ПГТУ, 1997. – 55 с.; Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: дис. ... док. пед. наук. – М., 1999. – 289 с.; Аслезова Л.В. Теоретические основы организации контроля результатов учебной деятельности студентов в процессе модульнодистанционного обучения: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Улан–Удэ, 2001. – 23 с.; Монахов В.М. Проектирование современной модели дистанционного образования.//Педагогика. – Москва. №6. С.11 – 20; Ибрагимов И.М. Информационные технологии и средства дистанционного обучения. – М: Академия, 2008. – 329 с.; Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании: Автореф. дис.док. пед. наук. – Ульяновск, УлГТУ, 2010. – 46 с.; Никуличева Н.В. Внедрение дистанционного обучения в учебный процесс образовательной организации: практ. пособие / Н.В. Никуличева. – М.: Федеральный институт развития образования, 2016. – 72 с.; Романенкова Д.Ф. Методы педагогического контроля качества учебной деятельности в системе дистанционного обучения // Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогические науки».2013. –Том 5.№1.С. 121–126; Э.Г. Азимов Информационно-коммуникационные технологии в преподавании русского языка как иностранного. –Москва, 2012. - 352 с.; Вайндорф–Сысоева М.Е. Методика дистанционного обучения: учеб. пособие для вузов /М.Е.Вайндорф–Сысоева, Т.С.Грязнова, В.А.Шитова; под общ. Ред М.Е.Вайндорф–Сысоевой. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 194 с.

⁴ Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед.фан. док. дис. – Тошкент, ТДПУ, 2007. – 305 б.; Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – 145 б.; Асқаров А.Д. Масофавий ўқитиш таълим шаклининг ривожланиш босқичлари ва моделлари/Замонавий таълим.2015..Б.59–65; Лутфиллаев М.Х. Компьютерные имитационные модели в учебном процессе. Монография.-Самарканд, 2013.-102 с.; Ибраймов А.Е.Масофавий ўқитишнинг дидактик тизими. – Тошкент:Lesson press, 2020.– Б.12.

⁵ Маматкулов Х.А. Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантирининг ахборот–методик таъминотини такомиллаштириш: Автореф. пед.фан.ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2017.– Б.13–14.

⁶ Тўхтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ходисаси асосида ривожлантириш: Автореф: дисс. ... докт. пед. наук. –Ташкент, 2018. –23 б.

⁷ Мухитдинова М.Р. Умумий ўрта таълим мактаби битирувчиларини инглиз тилига масофавий ўқитишнинг усул ва воситалари: Автореф. пед.фан.ф.д. (PhD) дис. – Тошкент, 2020. – Б.11.

Ta'lim jarayoniga vebinar texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha Selen Emre, Wong Sze Ki Agnes, Banu Çiçek Başaran, Marly A. Miller, Fayram Joanna kabi xorijlik olimlar ilmiy izlanishlarini misol keltirsa bo'ladi⁸.

Talabalarning amaliy kompetensiyasini shakllantirish Anastasia Wanjiru Maina va I. V. George⁹ tomonidan o'rganilgan.

Biroq, O'zbekistonda ingliz tilini masofaviy o'qitishda vebinar texnologiyalaridan foydalanish, ularning afzalliklari, imkoniyatlari, vebinar texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini samarali va interfaol usulda tashkil qilish hamda talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli tadqiqot olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi «Xorijiy tilni o'qitish jarayonida raqamli va axborot texnologiyalarini joriy etish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliy kompetensiyalarini vebinar texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning amaliy kompetensiyasini takomillashtirishda gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda vebinar texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirishda onlayn rejimda sinxron tarzda tashkil etilgan darslar samaradorligini aniqlash;

talabalarning amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv keyslari, o'quv loyihalari, mashq va kommunikativ o'qitish metodlarini integrativlik tamoyiliga asoslangan holda og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish;

ingliz tili vebinar darslarida talabalarning "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanidan mustaqil ta'lim jarayonida amaliy kompetensiyalarini takomillashtirish bosqichlarining metodologik loyihasini yaratish;

BigBlueButton platformasi asosida vebinar mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi teskari aloqa va mustaqil bilim olish jarayonini samarali uyg'unlashtirish orqali takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi OTMlarining 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi birinchi va ikkinchi bosqich 543 nafar talabalarining amaliy kompetensiyalarini vebinar texnologiyalari yordamida takomillashtirish jarayoni olingan.

⁸ Selen Emre Webinars for teaching English as a foreign language and for professional development: teacher perceptions.- Ankara. 2019, 122 p.; Wong Sze Ki Agnes Relationship between Participation in the Webinar and Students' Behaviours and Engagement in Online Learning, Toronto, 2012. 67 p.; Banu Çiçek Başaran Webinars as instructional tools in English language teaching context.- Ankara. 2014, 246 p.; Marly A. Miller How webinars experiences influences selection of online doctoral programs: a qualitative descriptive study.-USA, 2021.-324 p.; Fayram Joanna The nature and role of social presence in audiographic, synchronous online language learning contexts, 2017.-314 p.

⁹ Anastasia Wanjiru Maina Influence of competence in practical skills on students' performance in Biology practicals in secondary schools in Kiambu country.- Kenya, 2015.-123 p.; И. В. Георге Формирование профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования на основе организации самостоятельной работ.- Тюмень ТИУ, 2016.-143 с.

Tadqiqotning predmeti 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliy kompetensiyasini vebinar texnologiyalari asosida "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fani misolida takomillashtirishning shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada nazariy (tahliliy–statistik, qiyosiy–taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.) qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining amaliy kompetensiyasini takomillashtirishda gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda vebinar texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirishda onlayn rejimda sinxron tarzda tashkil etilgan darslar samaradorligi asoslangan;

talabalarining amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv keyslari, o'quv loyihalari, mashq va kommunikativ o'qitish metodlarini integrativlik tamoyiliga asoslangan holda og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

ingliz tili vebinar darslarida talabalarining "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanidan mustaqil ta'lim jarayonida amaliy kompetensiyalarini takomillashtirish bosqichlarining metodologik loyihasi yaratilgan;

BigBlueButton platformasi asosida vebinar mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi teskari aloqa va mustaqil bilim olish jarayonini samarali uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

O'zbekiston Respublikasi OTMlarining 5111400-Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanining onlayn darslarida vebinar texnologiyalardan foydalangan holda talabalarining amaliy ko'nikmalari takomillashtirilgan;

mamlakatimiz OTMlarining 5111400-Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanining masofaviy darslarida vebinar texnologiyalardan foydalangan holda tavsiyaviy interfaol metodlar loyihasi ishlab chiqilgan;

"Til ko'nikmalari integratsiyasi" darslarida vebinar texnologiyalardan foydalangan holda interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha umumiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi pedagogikaning bilish nazariyasi va metodologiyasi hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga tayanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning amaliy kompetensiyasini takomillashtirish uchun metodik ta'minot ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tilidan vebinar darslarini qiziqarli va interfaol olib borish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning amaliy kompetensiyasini vebinar texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar asosida:

ingliz tili vebinar darslarida talabalarning amaliy kompetensiyasini kommunikativ o'qitish metodi, loyihalash metodi, mashq metodlari yordamida takomillashtirish usullari aniqlashtirilgan xulosa va tavsiyalardan Evropa Ittifoqi TEMPUS dasturining 2014–2016-yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161–TEMPUS–1–2013–1–UK–TEMPUS–JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 05-apreldagi 563/30.02.01–son ma'lumotnomasi).

Natijada vebinar darslarini yangicha yondashuvlar ko'magida modernizatsiyalash, ingliz tilida gapirish va yozishga motivatsiyani oshirish imkonini beradigan usullarni ishlab chiqish, talabalarning virtual olamda nutqiy ko'nikmalar, xususan, yozish ko'nikmasini rivojlantirishga doir turli elektron materiallar yaratishga erishilgan;

talabalarining “Til ko'nikmalari integratsiyasi” fanidan mustaqil ta'lim jarayonida amaliy kompetensiyalarni takomillashtirish bosqichlarining (ma'lumot yig'ish, uni tahlil qilish va ishlov berish, topshiriqni bajarish va prezentatsiya qilish) metodologik loyihasi ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 05-apreldagi 564/30.02.01–son ma'lumotnomasi).

Natijada professor-o'qituvchilarning mutaxassislik fanlarini o'qitishda interaktiv metodlardan samarali foydalanishiga, ma'sofaviy ta'limning vebinar texnologiyalari yordamida o'tiladigan mutaxassislik fanlarini sifatli etkazib berishiga erishilgan;

o'qituvchilar uchun interfaol metodlar asosida vebinar mashg'ulotlarini o'tish va talabalarning amaliy kompetensiyasini takomillashtirishda gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda rivojlantirish uchun tavsiya qilingan metodik tavsiyalardan I–204–4–5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 05-apreldagi 575/30.02.01–son ma'lumotnomasi).

Ilmiy natijalarning qo'llanilishi ingliz tili masofaviy onlayn darslarda talabalarning amaliy kompetensiyasi (gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalari)ni takomillashtirish imkonini bergan;

talabalar ta'lim olayotgan yo'nalishining "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanidan takomillashtirishi kerak bo'lgan ko'nikmalarining (til bilish qobiliyati, mustaqil ta'limni bajarishdagi kreativ yondashuvi, o'z-o'zini baholashi, tanqidiy fiklashi, individual yoki juftlikda ishlash qobiliyati, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi, mas'uliyati va motivatsiyasi) teskari aloqa va mustaqil bilim olish orqali dalillangan xulosalardan OT-Atex-2018-519 "Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslarni veb ilovasini dasturiy ta'minotini yaratish" nomli amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 13-apreldagi 926/30.02.01–son ma'lumotnomasi).

Natijada imitatsion modellarni yaratish va ulardan virtual resurslar sifatida o'quv jarayonida foydalanish kabi dolzarb masalalarga echim topilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 27 ta ilmiy-metodik ish, shu jumladan, 1 ta o'quv-metodik qo'llanma, 1 ta lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Talabalarning amaliy kompetensiyasini vebinar texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida masofaviy o'qitishning ilmiy, amaliy asoslari, elektron ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari va hususiyatlari, vebinar texnologiyalar tushunchasi va uning vositalari ko'rib chiqilgan.

Masofaviy ta'lim bu o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'rtasida masofadan turib bilim olish/berish jarayonidir. Masofaviy ta'lim oliy ta'lim uchun yangi konsepsiya emas. Ohirgi 22 yilda masofaviy ta'lim dunyoning barcha burchaklarida shiddat bilan rivojlandi.

Biz MDH davlatlarining chet tillarni masofaviy ta'lim orqali o'qitishda ilmiy izlanishlar olib borgan L.P. Vladimirova, Nataliya Kolyada, Larisa Shapovalova, Yuliya Guz, Ashxen Melkonyan kabi olimlarning ishlarini o'rganib chiqdik¹⁰.

Ular chet tillarni o'rgatishda masofaviy ta'limda uchraydigan muammolarni ko'tarishgan, ya'ni o'qituvchilarda tashkiliy ishlar bo'yicha aniq tushuncha yo'qligi, didaktik, psixologik va pedagogik yondashuvlarni raqamli ta'lim orqali qo'llash mumkinligi haqida to'laqonli ko'nikma mavjud emasligini yoritishgan. Biz ushbu fikrlarga qo'shilgan holda Turkiya, Serbiya va Amerika universitetlaridagi olimlarning tadqiqotlarini ham ko'zdan kechirdik (Dr. Emrah Ekmekçi, Miroslav Trajanovic, Dragan Domazet, Biljana Misic-Ilic, Katharine Nielson, Marta Gonzalez-Lloret, Kim Pinckney¹¹). Ular xorijiy tillarni masofaviy o'rgatishning xususiyatlari, kursning tashkiliy jihatlari, o'qituvchining roli, talabani qo'llab qo'vvatlashi, baholashi, kurslardan talabani qoniqish jaradasi va hokazolar haqida ilmiy tadqiqot izlanish olib borishgan.

AQSHlik bir guruh olimlar (Katharine Nielson, Marta Gonzalez-Lloret, Kim Pinckney) chet tillarini masofaviy va gibrid ta'limda o'rganish, ularning o'xshash va farqli jihatlari, samarali chet tili dasturining xususiyatlari, uning tashkiliy jihatlari va qiyinchiliklari haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ularning fikricha, masofaviy ta'lim LMS (onlayn ta'limni boshqaruv tizimi) yoki CMS (masalan, Blackboard, Moodle, Sakai) (kursni boshqaruv tizimi)lariga tayanadi. Bundan tashqari, ba'zida masofaviy ta'lim kursi vebsayt, viki, forum yoki blogda ochilishi mumkin.

Elektron ta'lim (E-learning) deganda kompyuter texnologiyalari yoki mobil aloqa vositalaridan foydalangan holda internet tarmog'i orqali tayyor ma'lumotlar va ko'rsatmalarni o'zlashtirib olish tushuniladi. Elektron ta'limda ham yuzma-yuz ta'limdagidek interfaollik tamoyili bilan dars o'tilishi, talabalar bilan teskari aloqa bo'lishi, ularni o'z holiga tashlab qo'ymaslik muhimdir. Podkast, videokast, autentik va boshqa multimediya o'quv vositalaridan foydalanib dars o'tilishi talabalarning til bilish ko'nikmasini rivojlantirishga, tilni jonli o'rganish imkoniyatini yaratishga, ularning qiziqishi susaymasligiga xizmat qiladi.

N.Yu.Severova va D.K.Bartoshlar podkastlarning ingliz tilini o'rganishdagi ahamiyati va eshitish qobiliyatini rivojlantirish haqida mulohazalarni keltirishgan.¹² Ularning fikricha, podkastlar til to'sig'ini yengishga, talabalarning ingliz tili muhitiga jalb qilinishiga, ko'plab so'zlar va iboralar bilan tanishishiga imkoniyat yaratadi. Masalan, BBCning saytlarida til bilish darajalariga qarab

¹⁰ Владимирова Л.П. Дистанционное обучение иностранным языкам: специфика и перспективы, С.1-11; Kolyada Nataliya, Shapovalova Larisa, Yuliya Guz, Ashkhen Melkonyan Distance Learning of a Foreign Language – Necessity or Future, Southern Federal University.- Rostov on Don, Russia, 2021, Vol. 16, No. 04, P. 167-187, <https://doi.org/10.3991/ijet.v16i04.18299>

¹¹ Dr. Emrah Ekmekçi Distance-education in foreign language teaching: evaluations from the perspectives of freshman students, Ondokuz Mayıs University, School of Foreign Languages, Kurupelit Campus, Samsun.- Turkey, 2014.-P.390-397; Miroslav Trajanovic, Dragan Domazet, Biljana Misic-Ilic Distance learning and foreign language teaching.- Belgrade: Serbia University of Nis Cirila i Metodija 2, 2007.- P.441-452; Katharine Nielson, Marta Gonzalez-Lloret, Kim Pinckney Learning Foreign Languages at a Distance Characteristics of effective online courses.-University Of Maryland Center For Advanced Study Of Language, 2009.- P.169-188.

¹² Северова Н.Ю., Бартош Д.К.Электронное обучение как средство реализации лингвострановедческого аспекта в преподавании иностранного языка в вузе// Педагогика и психология образования.2017, №4, с.88.

o'quv podkastlarini tanlash va eshitish mumkin. Ularni sinf ishi sifatida yoki mustaqil ish sifatida bajarsa bo'ladi. Bundan tashqari, ular videokastlardan ham foydalansa bo'ladi, deb hisoblaydi. Videokastlar zamonaviy badiiy kino, video kliplar va yangiliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Ularning har biri transkripsiya (subtitr) bilan birga keladi. Bu esa ham eshitib, ham o'qib o'rganish imkonini beradi.

Ye.S. Kuzmina-Mamedovaning fikriga ko'ra chet tillarni o'qitishda elektron ta'limning samarasi interfaollikda, hamda o'qituvchidan teskari aloqa olishda. Interfaol ta'lim modeli o'qituvchining qatnashuvini o'z ichiga olishi yoki olmasligi mumkin. Ushbu ta'limda muhimi talabalarning faolligi va mustaqilligi.

Vebinarni internet texnologiyalari yordamida tashkil etilgan virtual seminar deb hisoblash mumkin. Vebinar texnologiyalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solsak, u AQSHda 1990-yillarning oxirlarida qo'llanila boshlangan. "Vebinar" atamasi esa 1998 yildan Erik R.Korb tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan. Ammo keyinchalik sudda InterCal tomonidan e'tiroz bildirilgan, shu sababdan ayni paytda ushbu kompaniya vebinar savdo belgisining egasidir.

U seminarining asosiy xususiyati bo'lgan interfaollikka ega bo'lib, pedagogik amaliyot sub'yektlari o'rtasidagi aloqa qilish imkoniyatini beradi. A.Ibraymovning fikricha vebinarni tashkil etish uchun uchta bosqichga e'tiborni qaratish kerak. Bular: texnik ta'minot, vebinarni o'tkazish uchun tayyorgarlik va vebinarni o'tkazish. Vebinarni samarali o'tkazish pedagog o'qituvchidan texnik va pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. S.D. Kalinina ham o'z maqolasida o'qituvchini asosiy tashkilotchi sifatida ta'riflagan bo'lib, u A.Ibraymovdek fikr bildirgan.

Vebinarni yaratishda o'qituvchi bir nechta funksiyalarni bajaradi: ijtimoiy (dars uchun do'stona muhit yaratadi), pedagogik (onlayn ta'lim uchun eng samarali vositalarni tanlaydi), texnik (texnik yordamni yaxshi biladi, muammolarni mustaqil hal qila oladi) va tashkiliy (onlayn uchrashuvni puxta rejalashtiradi va loyihalaydi).

Vebinar uydan chiqmasdan dunyoning boshqa til vakilidan chet tilini o'rganish imkonini beradi. Bu imkoniyat nogironlarga ham bilim olishga qulaylik yaratadi. Sanjib Kumar Gupta, Nabanita Sengupta o'z tadqiqotida Hindistonning 1% nogironlari 150dan ziyod kolledjlarda bilim olishayotganligini keltirib o'tishgan. Albatta buning uchun mobil telefonlar, planshetlar va kompyuterlar sozlangan bo'lishi va internet aloqasi yuqori tezlikda ishlashi talab etiladi. Vebinar – bu ishtirokchilarning turli joylarda bo'lishidan qat'iy nazar, audio, video ma'lumotlar almashinuvini interaktiv holatda o'tkazish imkonini beradigan texnologiya. Shunday qilib, vebinar barcha ishtirokchilarni birlashtiradigan virtual auditoriya.

Veb-seminarning asosiy xususiyati uning interaktiv elementlari – ma'lumot berish, qabul qilish va muhokama qilish qobiliyatidadir. Interaktiv funksiyani veb-seminar bilan bir xil saytdagi muhokamalar va onlayn chatlar orqali amalga oshirish mumkin. Bu tinglovchilarga materialni onlayn hamjamiyat sifatida muhokama qilish imkonini beradi, ba'zi hollarda savollar berish yoki to'g'ridan-to'g'ri panelga uzatilishi mumkin bo'lgan bayonotlar berish orqali taqdimotni onlayn tarzda interaktiv muhokama qilishga yordam beradi. O'quvchilarga

muhokama qilish uchun ma'lumot (matn, grafik, audio yoki video) taqdim etish imkonini beruvchi yuqori darajadagi interaktivlik ta'minlanganligi sababli o'quv jarayoni barcha uchun yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bularning barchasi ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Talabalarning amaliy kompetensiyasini vebinar texnologiyalar asosida takomillashtirish metodlari”** deb nomlangan bo'lib, unda ingliz tilini vebinar texnologiyalari orqali o'qitishda interfaol metodlar, vebinar texnologiyalarining auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida qo'llanishi hamda vebinar texnologiyalari yordamida talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari va metodik tavsiyalari tadqiq etilgan.

Interfaol ta'lim – ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim”¹³. Interfaol o'qitish ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalanishda vebinar texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: talabalarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, fikrlashga majbur etish, talabalarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash, muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish, do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Vebinar texnologiyalari orqali ingliz tilida talabalarning gapirish, eshitish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlari quyidagi interfaol metodlar orqali amalga oshiriladi. (2.1-jadvalga qarang).

2.1-jadval.

Ingliz tili vebinar darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar va grafik organayzerlar

Interfaol metodlar	Pedagogik texnologiyalar	Grafik organayzerlar
1. Kommunikativ o'qitish metodi (Communicative Language teaching)	1.Aqliy hujum	1.Baliq skeleti
2. Keys–stadi metodi (yoki “O'quv keyslari”)	2.Bumerang	2.BBB
3.Loyihalash metodi (Project-Based Learning)	3.Skarabey	3.Venn diagrammasi
4. Mashq metodi (Task-Based Language Teaching)	4.Blits-so'rov	4.Insert
	5.Zinama–zina	5.Klaster
	6.Sinkveyn	6. Chaynvord
	7.Bahs-munozara	7. T–jadval
	8. Qanday?	8. FSMU (fikt, sabab, misol, umumlashtirish)
	9. Galereya	9. Charxpalak
		10. Idrok xaritasi

Oxirgi 20 yillarda darsning mohiyati o'zgarib, o'qituvchi dars markazini talabaga bo'shatib berdi, ya'ni teacher-centered (o'qituvchi markazda)dan student-

¹³ Мухамедов Ў.Х., Усмонбаева М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Ўқув–услубий тавсиялар. –Т., 2016.–45 б.

centered (talaba markaz)ga o'tildi. Bunda interaktiv metodlardan bo'lgan kommunikativ o'qitish metodi (Communicative Language teaching), keys–stadi metodi (yoki “O'quv keyslari”), loyihalash (Project-Based Learning) va mashq (Task-Based Language Teaching) metodlari o'qituvchiga yordamga keladi. Ushbu metodlardan vebinar texnologiyalar orqali o'qitishda ham faol qo'llanib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning ayrim oliy o'quv yurtlarida BigBlueButton platformasidan onlayn ta'limni tashkil etish maqsadida foydalanilmoqda.

BigBlueButton ham real vaqt rejimida onlayn dars tashkil etish bo'lib, talabalar va o'qituvchilarga yuzma–yuz ta'limni tashkil eta oladi. Shuningdek, bu platforma 80 minutlik ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish, prezentatsiya taqdim etish, ko'p funksiyali doskadan foydalanish, audio, video materiallarni joylash, giperssilkalardan foydalanish, uyga vazifa yuklash va tekshirish, talabaga dars materiallarni joylash, onlayn imtihon olish va baholash kabi funksiyalarga ega.

Masofaviy darslarda talabalarning real bilim va o'zlashtirish natijalarini tekshirish juda qiyin kechadi. Shu sababdan berilgan bilimni nazorat ishlarida shaffof tarzda baholash uchun ushbu maqsad uchun yaratilgan ayrim texnologiyalar kerak bo'ladi. Vebinar texnologiyalar orqali ta'lim olgan talabalarning natijasini bilish uchun biz quyidagi LockDown (Lok Daun) brauzerini tavsiya qilamiz.

Respondus LockDown (Respondus Lok Daun) brauzeri yoki shunchaki Lok Daun brauzeri – bu talabalar onlayn imtihonlarni topshirishda (talabalar tomonidan) aldanib qolishdan, ko'chirmachilikdan saqlanish va onlayn testlarni shaffofligini ta'minlash uchun imkon beradigan dastur hisoblanadi.

Respondus tomonidan ishlab chiqarilgan ushbu dasturning o'z nomidan (lock down– inglizcha qulflash degani) ma'lumki, u testni tugatguningizga qadar nusxa ko'chirishni, bosib chiqarishni (printerdan), boshqa dasturga kirishni va boshqa veb–saytlarga kirishni cheklab qo'yadi. Ushbu brauzer imtihonlarni onlayn tarzda topshirilishi rejalashtirilgan har qanday raqamli firibgarlik urinishlarini bekor qilish uchun mo'ljallangan.

Auditoriyadan tashqari bo'lgan ingliz tili darslarida vebinar texnologiyalardan foydalanish quyidagi shakllarda olib boriladi:

- mustaqil ta'limda;
- to'garaklarda.

Mustaqil ta'lim – dars jarayonidan tashqari professor–o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan ta'lim bo'lib, o'rganilayotgan fan yuzasidan talabalarning bilimlarini mustaqil ravishda egallash, shu bilan birga talabalarni izlanishga, o'z ustida ishlashga, mustaqil fikr yuritishga va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga ko'maklashuvchi ta'limdir.

To'garak – uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limni rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida dasturlar va rejalar asosida ishlab chiqilib, o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga

yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy, ilmiy-uslubiy va ijodiy mashg'ulotlar majmui hisoblanadi.

Biz "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanidan vebinar mashg'ulotlaridan foydalangan holda mustaqil ta'limni va to'g'arak mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha o'z tavsiyalarimizni ishlab chiqdik. Ular barcha til ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan. Bunda ayrim interfaol metod (Loyiha metodi, Poster prezentasiya, Video prezentasiya)lardan foydalanishni tavsiya qildik. Bundan tashqari birinchi va ikkinchi bosqich Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalarining "Til ko'nikmalari integratsiyasi" fanidan mustaqil ta'lim olishlari uchun mo'ljallangan topshiriqlar va metodlar loyihasini ham ishlab chiqdik.

Xorijiy tajribani o'rganish, uni milliy qadriyatlarimizga moslashtirgan holda talabalarga o'rgatish va zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lg'usi kasb egalarini raqobatbardosh kadr etib tarbiyalash bugungi zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining barcha oliy ta'lim muassalarida yangicha yondashuv asosida dars o'tish, talabalarni erkin va tanqidiy fikrlaydigan mutaxassis etib shakllantirish o'qituvchi tanlagan o'qitish metodi bilan chambarchas bog'liq.

Biz ta'limning an'anaviy uch elementi hisoblangan "bilim - ko'nikma - malaka"ni o'rniga oltita birlik "bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik" tarzida ko'rish taklifini beramiz. Avvalambor, "kompetensiya" tushunchasiga kelaydigan bo'lsak, u lotincha so'zdan kelib chiqib, bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli qo'llay olish degan ma'noni bildiradi. Barchaga ma'lumki, "kompetensiya" tushunchasi aksariyat holatlarda kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan birga tilga olinadi. Endi ushbu so'zning ma'nosi o'zbek tili lug'atida qanday keltirilganini kuzatsak. "U lotincha «Competentia» so'z bo'lib, «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi. Kompetensiya atamasining sinonimi bo'lmish kompetentlik so'zi ham "Biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati" deb berilmoqda. Kasbiy kompetentlik deganda esa "Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi" degan ma'no tushuniladi.

Shunday qilib, «kompetensiya» tushunchasining ta'riflari mazmunini tahlil qilish bizga unga nisbatan ba'zi muhim ma'nolarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Demak, u ma'lum bir bilim, ko'nikma tizim; shaxsiy xususiyatlar, sifatlar, motivlar, bilim, ko'nikma va shaxsiy potensial tizimga asoslangan ma'lum funksiyalarni bajarishga yo'nalitiraydigan motivatsiya, qobiliyat, tayyorgarlik demakdir.

Mashqlar - rejali tashkil etilgan faoliyat bo'lib, chet tilidagi nutqiy faoliyatning har xil turlarida ko'nikmalarni takomillashtirish va malakalarni rivojlantirish maqsadida leksikani ko'p bora takrorlashni taqozo etadi. Mashqlarning ko'plab toifalari mavjud bo'lib, biz tadqiqotimiz uchun I.V.

Raxmanov taklif etgan mashqlar tasnifidan foydalanishni lozim topdik (2.10–jadvalga qarang).

2.10-jadval.

Vebinar darslarida mashqlar tizimi

Maqsadi bo'yicha	Material xususiyati bo'yicha	Bajarish usuli bo'yicha
1. Lisoniy va nutqiy	1. Dialogik	1. Og'zaki va yozma
